

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI SAMARALI  
O'RGAATISH USULLARI**

*Abdullayeva Iroda Sharof qizi,*

*Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi,*

*2-ingliz fakulteti, 1-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: V.X. Bozorovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini samarali o'rqaatish bo'yicha turli usullar ko'rib chiqiladi. O'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun bolalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos keladigan metodlar tanlangan. Maqolada ingliz tilini o'rqaatishda o'yinlar, vizual materiallar, qo'shiqlar, hikoyalar, interaktiv faoliyatlar va texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, "Duolingo" ilovasi, flesh-karta.

Ma'lumki, ko'p yillardan buyon chet tili o'zlashtirilishi qiyin bo'lganligi uchun faqatgina yuqori sinf o'quvchilariga o'rqaatilar edi. Ammo O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-1875- sonli qarori asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiyligi o'rta ta'lim maktablarining sinflarida o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2- sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish, yozish va grammatikani o'qitish yo'lga qo'yilgan.[2] Lekin ko'pgina yosh o'quvchilar haligacha bu fanni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Tabiiyki, 7-8 yoshli bolalar bu fanga birdaniga qiziqib ketmaydi yoki yaxshi o'zlashtira olmaydi. Ularni bunga qiziqtirish yoki maqsadli o'rganishi uchun ba'zi bir samarali usullarni taqdim etaman:

**1. O'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar**

Bolalarning o'yin orqali o'rganishga moyilligini inobatga olib, interaktiv o'yin usulidagi darslar ta'lim jarayonida muhim o'rinni tutadi:

- Harakat o'yinlari: "Simon says", "Red light, green light" kabi o'yinlar bolalarning buyruqlarni tushunishi va so'zlarni yodlashiga yordam beradi. Misol tariqasida "Simon says" metodi bolalarning qanchalik chet tilini tez

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tushunayotganiga qaratilgan. Bu metod o'yin tarzida olib boriladi. Buni 4-5 o'quvchi bilan yoki butun sinf bilan o'ynash mumkin. O'qituvchi bolalarga "Simon says, touch your ears" shunday turli xil savollar taqdim etadi, ular esa o'qituvchi berayotgan buyruqlarini tezkorlik bilan bajarishi kerak. Bu o'yin 1 ta o'quvchi qolmagunga qadar davom etadi. Yoki "Dictionary" metodini olaylik, bu metodda asosan taqqoslash va solishtirish asosiy o'rinni tutadi. Ya'ni o'quvchilarni 2 guruhga bo'lib, 1 guruhiga elektron lug'atdan, 2 guruhga esa kitob variantdagi lug'atlardan foydalangan holda so'zlarni, matnni kim birinchi tarjima qilish vazifasi beriladi. Bu usulda albatta 1 guruh vakillari tezkorlik bilan shartni bajarishadi. Ammo 2 guruhning xotirasida so'zlar ko'proq va uzoqroq muddatga saqlanib qoladi. Chunki ular har bir so'zni qiynalib va mehnat qilib topishadi.

- So'z o'yinlari: Flesh-kartalar yordamida yangi so'zlarni o'rganish. Albatta, bu ham juda foydali usul. Masalan o'qituvchi sinfdagi o'quvchilar soniga qarab flesh-kartalar yaratadi. Bu kartalarning old tomonida o'rganilmoqchi bo'lган yangi so'z, orqa tomonida esa shu so'zning tarjimasi yoki izohi yozilgan bo'lishi kerak. Unutmaslik lozimki, yosh bolalar haqida gapirilganda, rang-baranglik muhim rol o'ynaydi, shuning uchun iloji boricha flesh-kartalar ham turli xil ranglar va rasmlar bilan bezalgan bo'lishi kerak. Zero, bola uni ko'rganda xotirasida saqlab qolsin.
- Role-play: Oddiy muloqot sahnalarini yaratib, o'quvchilarni suhbatga jalb qilish, bundan tashqari, bu usul bolaning chet tiliga qiziqishini oshirib, tilni amaliy ravishda o'rganish imkonini beradi. Bu ham o'yin tarzida olib boriladi. Masalan, role-play shaklidagi o'yinlarda bolalar haqiqiy hayotga yaqin vaziyatlarni tasavvur qilishadi, aytaylik, do'konga borish, shifokor ko'rigida bo'lish, sayohat qilish va hokazo. Bu ularga kontekstda so'z va iboralarni yodda saqlashga yordam beradi. Bu o'yin qanday o'ynaladi? Masalan, bolalar xaridor va sotuvchi bo'lischadi. "How much is it?", "Can I buy...." kabi iboralarni ishlatischadi. Bu o'yining yana bir afzalligi shundagi,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

bola ingliz tilini o'zlashtiribgina qolmay, balki til o'rganishdan zavq olishni ham o'rganadi.

Yana shuni ham bilishimiz zarurki, ta'lim sharoiti tushunchasi ingliz tili ta'limida samaradorlikni ta'minlashda tabiiy sharoit, o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quvchining yoshga oid fiziologik, psixologik va bilish faolligi xususiyatlari, o'quv predmetiga ajratilgan vaqt hamda o'quvchilarning o'quv predmetiga bo'lgan munosabati va o'rganish layoqati kabi omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar haqida kengroq tushuncha tasavvur hosil qilish maqsadida ingliz tilining tabiiy sharoitda o'zlashtirishi va sun'iy sharoitda o'rganilishini qiyoslab ko'ramiz:

*Yazid* – 8 yoshli Malayziyalik bola. U mактабда ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganadi. Maktabdan tashqari u ingliz tilidagi reklamalar va yo'l belgilarini ko'radi, turli nutq vaziyatlarida ingliz tilida sodir bo'layotgan kommunikatsiya va interaksiyaning jonli guvohi bo'ladi. Uyda esa u bolalar uchun ingliz tilidagi subtitrli ko'rsatuvlarni tomosha qiladi. U o'qituvchisi va tengdoshlari bilan o'ziga tanish mavzularda ingliz tilida muloqot qila oladi.

*Daniel* – 8 yoshda, millati rus, Norvegiyada istiqomat qilayotgan rus oilada tug'ilgan. Oslo shahridagi ayrim predmetlar ingliz tilida o'qitiladigan maktabning 3 sinfida o'qiydi. Maktabdan tashqarida u norveg va ingliz tilida yozilgan peshtaxtalar va reklamalarni ko'radi, ingliz tilida gaplashayotgan insonlar suhbatini tinglaydi. Shifoxonaga, do'konga, istirohat bog'iga borganida turli kasb vakillari bilan ingliz tilida muloqot qiladi. Uyida ota-onasi bilan rus tilida gaplashadi, badiiy va multiplikatsion filmlarni ingliz tilida subtitr yordamida muntazam ko'radi.

*Yunusbek* – 9 yoshda, O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati Norin tumanidagi ingliz tili darslari haftasiga ikki soat (45 minut) o'tkaziladigan 34-maktabning 3- sinf o'quvchisi. U sinfonadan tashqarida ingliz tilidagi biror ko'rsatkich, yo'l belgisiyoki reklamani juda kam ko'radi, ingliz tilida suhbatlashayotgan insonlarni deyarli uchratmaydi. U ingliz tilini ustozida rag'bat olish va ota-onasini xursand qilish uchun o'rganadi.[3] U cheklangan

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

miqdordagi leksik birliklar ishtirokida o'ziga tanish mavzularda sodda gaplar tuzadi.

Guvohi bo'lganimizdek, birinchi va ikkinchi sharoitlarda chet tilini muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish uchun tabiiy muhit mavjud. Chunki birinchidan, vaqt cheklanmagan, ikkinchidan, o'rganilayotgan chet tilida muloqot qilinayotgan turli ijtimoiy vaziyatlarga tushib qolish kuchli ehtiyoj va yuqori motivatsiyaga sabab bo'ladi, eng asosiysi, fikr ifodalashga shaxsiy tashabbus ko'rsatiladi. Shu sababdan, tabiiy ta'lim sharoitida ingliz tili samarali o'zlashtiriladi.[3]

Uchinchi, sun'iy muhitdagi ta'lim sharoitida ham ingliz tili o'rganiladi, ammo yuqoridagilarday emas. Sababi bu bola oliy maqsad qo'yib ingliz tilini chuqur o'rganmayapti, bu esa yuqori sinfga o'tganda ancha pand berishi mumkin.

### **2. Vizual va eshitish materiallari**

Bolalar vizual va eshitish orqali bilimlarini yaxshiroq o'zlashtiradi. Shuning uchun quyidagi materiallardan foydalanish mumkin:

- Rangli rasmlar: so'zlarni va ularning ma'nolarini rasm orqali o'rgatish
- Video va animatsiyalar: Ingliz tilidagi qisqa multfilmlar va hikoyalar orqali bolalarning qiziqishini oshirish.

### **3. Texnologiyalardan foydalanish.**

Zamonaviy texnologiyalar bolalarning o'quv jarayonini yanada jozibador qiladi. Masalan, Duolingo Kids, Lingokids kabi ilovalar yoki interaktiv taxtalardan foydalanish bolalarga o'zlashtirishni osonlashtiradi.

### **4. Bosqichma-bosqich o'qitish**

Boshlang'ich sinflarda o'qitish o'quvchilarining psixologik va kognitiv rivojlanishini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich olib borilishi kerak. Birinchi bosqichda talaffuz, oddiy so'z birikmalari va qisqa jumlalar o'rgatiladi.[1] Keyinchalik oddiy matnlarni o'qish va gapishtirish ko'nikmalari rivojlanadi. Tajriba tariqasida, yaqinda 2-sinf o'quvchilariga ingliz tili fanidan dars o'tildi. Haqiqatan bu sinfda bir qancha o'quvchilarning ingliz tilini o'zlashtirish darajasi juda past

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ekan. Turli xil usullardan foydalanildi va ishontirib ayta olamizki, eng ko'p foyda bergen usul bu- o'yinlar orqali o'tilgan dars jarayoni bo'ldi. O'yin orqali bu fanga qiziqmaydiganlar ham, yaxshi bilmaydiganlar ham samarali o'zlashtirdi. Ular bir darsda juda ko'p narsalarni o'rgandi. Mening fikrimcha, boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini samarali o'rgatish bolalarning psixologiyasi va o'quv jarayonida bo'lgan qiziqishini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

Umuman olganda, ingliz tilini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish uchun qo'llaniladigan zamonaviy va interaktiv yondashuvlar tilni o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdag'i o'quvchilarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot sifatida olib borilishi, bir nechta samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakdagi bilimlari uchun poydevor vazifasini o'taydi.bolalarga chet tilini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Zero ular buni oson tushunib, hayotiga tatbiq qila olsin.

### **Foydalilanigan manbalar:**

1. *Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.:& N.Y. :Routledge, 2005. – 258 p.*
2. *Tajiboyev G.Sh.- “Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish” o'quv qo'llanmasi- 28 p.*
3. *Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics.- UK: Palgrave & Macmillian, 2011. - 308 p*